

AVLODLARARO MUNOSABATLARNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI O'RGANISHGA DOIR KONSEPTUAL QARASHLAR TAHLILI

Mirzaxanova Dilfuza Nig'matulla qizi
O'zXIA stajyor doktranti

Annotatsiya: *Hozirgi zamonda avlodlar o'rtasidagi munosabatlar muammosini o'rganish davomida bizning oldimizda quyidagi savol paydo bo'ldiki, unga javob bermay turib, eksperimental tadqiqotni to'g'ri tashkil etish mumkin emas. Avlodlarni o'rganish muammolarini tahlil qilishga olib kelgan zarurat - bu avlodlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishning dolzarb ahamiyati bilan avlodlar muammosini yetarli o'rganilmaganligi o'rtasidagi ziddiyatdir. So'nggi paytlarda turli tadqiqotchilar tomonidan amaliy tadqiqotlarda avlodlar muammosini o'rganishga bo'lgan harakat sezilarli o'sdi.*

Kalit so'zlar: *“avlod” tushunchasi, avlodlar muammosi, avlod yadrosi, shajaraviy davr, “katta avlod”, “kichik avlod”, generativ tajriba, postfigurativ madaniyat, kofigurativ madaniyat, prefigurativ madaniyat.*

Аннотация: *В ходе изучения проблемы взаимоотношений поколений в наше время перед нами встал следующий вопрос, без ответа на который невозможно правильно организовать экспериментальное исследование. Необходимость, которая привела к анализу проблем изучения поколений, - это противоречие между актуальной значимостью изучения социально-психологических особенностей поколений и недостаточной изученностью проблемы поколений. В последнее время значительно возросло стремление различных исследователей исследовать проблему поколений в прикладных исследованиях.*

Ключевые слова: *понятие “поколение”, проблема поколений, ядро поколения, генеалогический период, “старшее поколение”, “младшее поколение”, генеалогический опыт, постфигуративная культура, кофигуративная культура, префигуративная культура.*

Abstract: *In the course of studying the problem of intergenerational relations in our time, we have faced the following question, without an answer to which it is impossible to properly organize an experimental study. The necessity that led to the analysis of the problems of studying generations is the contradiction between the actual significance of studying the socio-psychological characteristics of generations and the insufficient knowledge of the problem of generations. Recently, the desire of various researchers to investigate the problem of generations in applied research has increased significantly.*

Keywords: *the concept of “generation”, the problem of generations, the core of generation, genealogical period, “older generation”, “younger generation”, genealogical experience, post-figurative culture, co-figurative culture, prefigurative culture.*

Avlodlar o'rtasidagi munosabatlar muammosi uzoq asrlar davomida tadqiqotchilarning diqqatini tortib kelgan. Qadimgi davrlardanoq olimlar avlodlarning insoniyat tamadduni, jamiyat va davlat taraqqiyotida tutgan o'rni to'g'risidagi savollarga javob izlab kelishgan.

Hozirgi zamonda avlodlar o'rtasidagi munosabatlar muammosini o'rganish davomida bizning oldimizda quyidagi savol paydo bo'ldiki, unga javob bermay turib, eksperimental tadqiqotni to'g'ri tashkil etish mumkin emas.

Avlodlarni o'rganish muammolarini tahlil qilishga olib kelgan zarurat - bu avlodlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishning dolzarb ahamiyati bilan avlodlar muammosini yetarli o'rganilmaganligi o'rtasidagi ziddiyatdir.

So'nggi paytlarda turli tadqiqotchilar tomonidan amaliy tadqiqotlarda avlodlar muammosini o'rganishga bo'lgan harakat sezilarli o'sdi. Adabiyotlarni tahlil qilish tadqiqotchilar oldida turgan uchta asosiy muammoni aniqlashga imkon berdi:

1. "Avlod" tushunchasini aniqlash muammosi;
2. Avlodning miqdoriy va sifat xususiyatlarini aniqlash muammosi;
3. Avlodni differensiyalash muammosi.¹⁴

Ayni paytda rus adabiyotida "avlod" tushunchasining ko'plab ta'riflari to'plangan. Ayrim mualliflar avlodni nasliy zanjirdagi bog'lanish, boshqalari hayotiy bosqich yoki tarixiy davrdagi bosqich, uchinchilari ijtimoiy-yosh sifatida talqin qiladilar va hokazo. Shu munosabat bilan V.T.Lisovskiy "avlod" tushunchasining demografik, antropologik, tarixiy, xronologik va ramziy kabi turli xil turkumlarini ajratadi¹⁵. V.I.Pishik¹⁶, avlodning tahlil birliklari sifatida mentallik darajasida uning ma'noli birikmasini taklif qilib, "avlod" tushunchasining ta'rifi uchun qadriyatli yondashuvni asos qilib oladi.

So'nggi paytlarda avlodlar tahliliga ijtimoiy-madaniy yondashuv ommalashib bormoqda, unda avlod muayyan bir davrda, bir xil ijtimoiy madaniy sharoitda yashab, umumiy aksiologik g'oyalar bilan birlashtirilgan, yoshi jihatdan o'xshash odamlar guruhi sifatida tavsiflanadi. Bunday odamlarda dunyoni obrazi, verbal axborot almashish usuli, fikrlashdagi o'xshashliklar hamda aksiologik qadriyatlarining, madaniy tarixiy rivojlanishning deyarli o'xshash bo'lishi kuzatiladi. V.V.Semenovanning fikricha, avlodlar umumiy tarixiy jarayon va shunga mos ravishda umumiy tarixiy tajriba bilan birlashtirilgan nisbatan yakka ijtimoiy jamoalardir¹⁷. Shu bilan birga, tadqiqotchilar avlodlarning ichki farqlanishi haqida gapiradilar (masalan, avlod yadrosi, avlodlar ichidagi madaniy va siyosiy uyushmalar haqida)¹⁸. Avlodlarni o'rganishda tadqiqotchilar ularning miqdoriy va sifat xususiyatlarini aniqlash muammosiga duch keladilar. Adabiyotlarda avlodning quyidagi miqdoriy belgilari ajratiladi: "davomiyligi" hamda ijtimoiy muhitda mavjud ajdod-avlodlarning miqdori va soni.

Avlodlar o'rtasidagi munosabatlarning to'liqroq va ob'yektiv xarakteristikasini qo'lga kiritish maqsadida bir paytning o'zida nechta avlodni o'rganish zarur. Mazkur masalani hal etish uchun falsafiy qarashlarga, xususan, ilmiy olamning eng yorqin namoyandaligidan biri bo'lmish Platon g'oyalariga murojaat etaylik, chunki uning kitoblarida ilk bor jamiyatning

¹⁴ Белоусова А.К., Пищик В.И. Рассогласование образа мира поколений как индикатор трансформации менталитета // Российский психологический журнал. -М. Том 3. 2006. -№ 4. С. 13-25.

¹⁵ Лисовский В.Т. Духовный мир и ценностные ориентации молодежи России. СПб.: СПбГУП, 2000. 508 с.

¹⁶ Пищик В.И. Трансформация ценностно-смысловых составляющих менталитета населения юга России // Вопросы психологии. 2008. - № 3. С. 81-91.

¹⁷ Семенова В.В. Современные концепции и эмпирические подходы к понятию «поколение» в социологии // Отцы и дети: поколенческий анализ современной России. - М.: Новое литературное обозрение, 2005. С. 80-107.

¹⁸ McAdams D. The Person: An Introduction to the Science of Personality Psychology. Hoboken, NJ: A John Wiley & Sons Inc., 2009. - 598 p.

avlodiy tuzilishi g'oyalari shakllantirilgan. Uning davlat haqidagi ta'limotini¹⁹. falsafa tarixidagi eng muhim ta'limotlardan biri deb atash mumkin. Uning ta'limoti insoniyat birligi muammosining qamrovi va hal etilishining chuqurligi nuqtai nazaridan eng maqbuldir. G.A. Kondratovaning fikricha, unda “inson borlig'ining ichki va tashqi jihatlari, turg'unlik va harakatdagi ijtimoiy va individuallik tabiiy ravishda sintezlanadi” («органически синтезировались внутренний и внешний аспекты человеческого»)²⁰. Platonning avlodlar va ularning insoniyat tamaddunining taraqqiyotidagi roli haqidagi g'oyalarini tushunish uchun, fikrimizcha, uning inson va davlat tipologiyasiga oid qarashlariga murojaat etish zarur. Platonning fikricha, ularning birligi va o'zaro aloqadorligi ilm sohasida tayanch bo'lib, barcha ijtimoiy jarayonlarni belgilaydi. Ruh tiplaridan Platon avval davlat tiplarini chiqaradi, ulardan kelib chiqib esa inson tipologiyasini belgilaydi va uning beshta tipini farqlaydi. Mazkur mantiqni u alohida shaxslardan ko'ra davlatda “fe'llar nisbatan aniqroq”²¹ ekanligi haqidagi fikr bilan asoslaydi, shuning uchun uning mulohazalarida inson tiplari va davlat tiplari haqidagi fikrlar bir-birini o'zaro to'ldirib keladi. Inson va davlat tiplari dinamikasini Platon ruh strukturasiidagi mutanosiblikning o'zgarishi bilan bog'laydi. Shunday bo'lsa-da, Platon ta'limotida davlat ham, individuum ham emas, ayni nasliy odam asos vazifasini o'taydi. Bunday tushuncha uning oila ichidagi avlodlar amashinuvini tahlilidan kelib chiqadi. G.A. Kondratova fikriga qo'shilgan holda faraz qilish mumkinki, uning besh inson tipining dialektik birligi bitta nasliy davrni, ya'ni nasliy birlikni tashkil etadi. “Shu asosda insonning shajaraviy birligiga o'rta bo'g'in sifatida qarash mumkinki, u orqali inson va jamiyat o'zaro bir-biriga ta'sir qiladi yoki, boshqa so'zlar bilan aytganda, individual va jamoaviy ifodadagi urug' yashash modusini tashkil etgan bir butun insonda namoyon bo'ladi”²². Shajaraviy davrni, uning inson besh tipi tizimi ko'rinishidagi antropologik strukturasi ajratish Platonga sotsial dinamikadagi ob'yektivlik va sub'yektivlik dialektikasini uzviy ko'rsatish imkoniyatini berdi. Ayni shajaraviy davr insonning vorisiylik va rivojlanish bilan bog'liq hayotining vaqtga oid, tarixiy aspektlarini tavsiflaydi. Insonning besh tipi tizimida Platon filogeneznining o'ziga xos sosio-madaniy birligini, mazkur shajaraning sosio-madaniy tajribasini o'zida jamlagan sulola so'zining davom ettiruvchisini ko'rsatgan. Xudo “otalar gunohi uchun.. ularning bolalarini, va bolalarining bolalarini va shunday qilib uchinchi, to'rtinchi bo'g'inigacha jazolaydi”, deb behuda aytilmagan, ya'ni u insonni hayotining individual modusida emas, sulolaviy modusida jazolaydi, juda bo'lmaganda meva bermaydigan shox sifatida butun shajarasini “qirqadi”. O'z holicha Shajaraviy yaxlitlik - inson va jamiyat o'rtasidagi asosiy, bog'lovchi bo'g'in, chunki u o'zida insonning individual va jamoaviy hayotining ajralmas birligini ifodalaydi. Shuningdek, Platon ta'kidlaydiki, inson evolyutsiyasining sifatiiy jihatlari tipologik farqlar sifatida alohida inson hayotida sulola avlodlaridagidan ko'ra kamroq namoyon bo'lgan. Yangi Yevropa falsafasida sulolaviy odam fenomeni haqida G. Hegel yozgan. U sulolaga insonga moslagan holda “sub'yekting yagonaligi bilan o'z ichida mavjud oddiy birlik” sifatida qaraganki, “u bunda o'z konkret substansiyasiga ega, ammo hali yagona sub'yektga aylanmagan”.

¹⁹ Гегель, Г. Философия природы / Г. Гегель. – Соч. : М.-Л., 1934. – Т.2. – с. 507.

²⁰ Кондратова, Г.А. Человеческое измерение истории / Г.А. Кондратова. – Архангельск, 2007.-с. 310

²¹ Платон. Государство собр. соч., кн.8. / Платон. – М., 1971. – С. 545.

²² Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. М.: «Полит. лит-ра», 1992. – С. 297-302.

Avlodlar o'rtasidagi o'zgarib borayotgan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatini anglashga taniqli etnograf M. Mid taklif etgan madaniyatlar tipologiyasi ham yordam beradi. M. Mid insoniyat tarixida avlodlararo aloqalar kriteriyasi bo'yicha madaniyatning uch tipini ajratadi: postfigurativ, bunda bolalar, avvalambor, o'zlarining o'tmishdoshlaridan o'rganishadi; kofigurativ, bunda bolalar va kattalar o'z tenqurlaridan o'rganishadi; prefigurativ, bunda kattalar o'z bolalaridan o'rganishadi.

Postfigurativ madaniyat o'zining yagona egasi huquqlarini, yangi avlod yetuklik yoshiga yetishi vaqtigacha – katta yoshdagi odamga taqdim etadi. Odatda mazkur vaqt an'ana yoki qonun tomonidan belgilab beriladigan chegaraga bilan aniqlanadi. Bu holatda alohida olingan shaxsning ham, butun solumning ham hayot-faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan nazariy bilim va amaliy tajriba kompleksini uzatish faqat katta avloddan nisbatan yosh avlod tomon yo'nalishida amalga oshiriladi.

Muayyan yoshdagi odamlar guruhi vakillarining o'z zamondoshlari shakllantirgan xatti-harakat modelini qabul qilishi madaniyatning kofigurativ usuliga o'tishdan dalolat beradi. Postfigurativdan farqli o'laroq, kofigurativ madaniyat tabiiy va insonning o'zi tomonidan yaratiladigan yashash makonining tinimsiz o'zgarishi sharoitida shakllanadi. Bunda otalardan bolalarga uzatiladigan o'tmish tajribasi yosh avlodning yangi oldindan bilish mumkin bo'lmagan hayoti sharoitida qisman yoki butunlay o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Bir paytning o'zida kofigurativ madaniyat o'zida qisman postfigurativ mazmunni ham mujassam etadi. Bu, avvalambor, bir necha avlod tomonidan tan olinadigan va shuning uchun "abadiy" va "absolyut" deb idrok etiladigan qadriyatlar tizimiga tegishli. «Katta avlod, - yozadi M. Mid, - ezigulik, haqiqat va go'zallik tabiatiga oid umumiy ittifoqlik hali ham mavjud, inson tabiati uning idrok etish, his etish, fikrlash va harakat qilishga oid tug'ma mexanizmlari aslida o'zgarishsiz qoladi, deb o'ylaydi. Bu kabi ishonch-e'tiqodlar, tabiiyki, antropologiyadagi kashfiyotlar to'liq anglab yetilganida saqlanmas edi, chunki ular sosial tartibot texnologiyalari va shakllaridagi yangiliklar muqarrar ravishda madaniyat xarakteridagi o'zgarishlarga olib kelishini mufassal isbotlab bergan»²³.

Hozirgi davrda, M. Mid fikricha, biz umuman o'zgacha, o'tmishda biron-bir o'xshashi bo'lmagan madaniyat modelini – prefigurativ modelini boshimizdan kechirayapmiz. Uning asosida tubdan o'zgarib borayotgan dunyo sharoitida yoshlar jamoalarining kattalarga notanish bo'lgan yashash tarzining vakili va yaratuvchisi bo'lish huquqini tan olishdan iborat avlodlararo munosabatlarning yangi usuli turadi. Yosh avlod egallayotgan yangi hayot tajribasi bundan buyon katta avlod madaniyati vakillari tomonidan o'zlashtirish predmetiga aylanishi kerak va ular endi "vaqt ichra immigrant" bo'lib qolish havfiga uchraydi.

M.Mid yozadi: "Yosh avlodning yoki undagi ayrim guruhlarining qadriyatlari katta avlod qadriyatlaridan sifat jihatdan farq qilishi mumkinligini shunchaki taxmin qilinishining o'zi, otalalar avlodining har qanday ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik yoki diniy qadriyatlariga,

²³ Held, K. Heimwelt, Fremdwelt, die eine Welt // Phänomenologische Forschungen / Hrsg. E.W.Orth. – Freiburg / München 1991. – Bd. 24/25 (Perspektiven und Probleme der Husserlschen Phänomenologie). – S. 316.

postfigurativ notanqidiy g'ayrat bilan yoki postfigurativ sodiqlik bilan tasdiqlanadigan qadriyatlarga tahdid sifatida qabul qilinadi»²⁴.

M. Mid amalga oshirgan madaniyat translyasiyasi ijtimoiy shakllarining tarixiy dinamikasiga oid tadqiqoti ta'lim faoliyatining sub'yekti bo'lgan shaxs xarakteristikalarining o'zgarishi bilan bog'liq zamonaviy ta'lim tizimi rivojining eng muhim tendensiyalarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Taqdim etilgan konsepsiyaning qoidalariga tayanib, biz madaniyat shakllarining almashinishi jarayonlari bilan baravar sodir bo'layotgan aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'limda o'quvchining sub'yektiv tajribasi mazmuni va vazifalarining transformasiyasi haqida gapirishimiz mumkin.

Zamonaviy jamiyatda bizning fikrimizcha, unda uch madaniyatning barcha unsurlari mavjud. Bu esa hozirgi jamiyatning o'ziga xosligini belgilaydi va uning vakillari o'rtasidagi og'ir munosabatlarning yanada keskinlashtiradi. Bugungi jamiyat uchun uchta va xatto to'rtta avlodning borligi xosdir (bolalar, ota-onalar, buva-buvilar, undan oldingi avlod). Katta avlod odat bo'yicha o'zining avvalgi avlodlar bilan muloqoti tajribasidan kelib chiqib, o'z boy tajribasini yoshlarga uzatishga harakat qiladi. Ammo so'nggi yillarda mamlakatimizda va butun dunyoda sodir bo'lgan tub o'zgarishlar (globallashuv, kompyuterlashuv, jamiyatning axborotlashuvi va h.k.) bu tajribaning amalda ham, aslida ham butunlay keraksiz bo'lib qolishiga va yoshlarning otalar va bobolar avlodidan jiddiy uzoqlashishiga sabab bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Белоусова А.К., Пищик В.И. Рассогласование образа мира поколений как индикатор трансформации менталитета // Российский психологический журнал. -М. Том 3. 2006. -№ 4. С. 13-25.
2. Лисовский В.Т. Духовный мир и ценностные ориентации молодежи России. СПб.: СПбГУП, 2000. 508 с.
3. Пищик В.И. Трансформация ценностно-смысловых составляющих менталитета населения юга России // Вопросы психологии. 2008. - № 3. С. 81-91.
4. Семенова В.В. Современные концепции и эмпирические подходы к понятию «поколение» в социологии // Отцы и дети: поколенческий анализ современной России. - М.: Новое литературное обозрение, 2005. С. 80-107.
5. McAdams D. The Person: An Introduction to the Science of Personality Psychology. Hoboken, NJ: A John Wiley & Sons Inc., 2009. - 598 p.
6. Гегель, Г. Философия природы / Г. Гегель. - Соч. : М.-Л., 1934. – Т.2. - с. 507.
7. Кондратова, Г.А. Человеческое измерение истории / Г.А. Кондратова. - Архангельск, 2007.-с. 310
8. Платон. Государство собр. соч., кн.8. / Платон. - М., 1971. - С. 545.

²⁴ Семенова В.В. Современные концептуальные и эмпирические подходы к понятию «поколение» // Россия реформирующаяся: Ежегодник - 2003 / Отв. ред. Л.М. Дробизева. М.: Институт социологии РАН, 2003. С. 213-237. [электронный ресурс].

9. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. М.: «Полит. лит-ра», 1992. – С. 297-302.

10. Held, K. Heimwelt, Fremdwelt, die eine Welt // Phänomenologische Forschungen / Hrsg. E.W.Orth. – Freiburg / München 1991. – Bd. 24/25 (Perspektiven und Probleme der Husserlschen Phänomenologie). – S. 316.